“O‘zkimyosanoat” AJ xorijiy hamkorlar bilan qator istiqbolli loyihalarni hayotga tadbiq etish ustida ish olib bormoqda

// 27.03.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-xorijiy-hamkorlar-bilan-qator-istiqbolli-l



“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga qator amaliy tadbirlar mo‘ljallangan.

Bunda albatta, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega.

“O‘zkimyosanoat” AJ mazkur yo‘nalishda xorijiy hamkorlar bilan qator istiqbolli loyihalarni hayotga tadbiq etish ustida ish olib bormoqda. “Acwa Power UKS Green H2” MCHJ QK tomonidan 52 MVt shamol elektr stansiyasi va yiliga 3000 tonna “yashil” vodorod” ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari shular jumlasidandir.

Loyihaning birinchi bosqichi doirasida “yashil vodorod” loyihasini ishga tushirish ko‘zda tutilgan. Ikkinchi bosqichda esa shamol turbinalarini yetkazib kelish va o‘rnatish ishlari amalga oshiriladi.

Ayni paytda pudratchi “Power China Huadong Engineering Corporation Limited” kompaniyasi tomonidan qurilish ishlari yakunlanmoqda. Asosiy texnologik uskunalar – 20 MVt quvvatdagi elektrolizyorlar o‘rnatildi va sozlash ishlari olib borilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati